Toshkent davlat yuridik universiteti
rektorining 2026-yil ___-iyuldagi
___-um-son buyrug‘iga
ILOVA

Toshkent davlat yuridik universitetida va uning huzuridagi tashkilotlarda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish USLUBIYOTI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiyot Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda – universitet) va uning huzuridagi tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartib-taomillar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishini monitoring va nazorat qilish tartibi hamda standartlarini belgilaydi.

2. Ushbu Uslubiyot maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

monitoring – korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda universitet tizimi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish;

nazorat – tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili.

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga qarshi tizim – korrupsiyaviy harakatlarning, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, universitet va uning huzuridagi tashkilotlar xodimlari tomonidan o‘z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar;

kontragent (shartnomaviy sherik) – universitet va uning huzuridagi tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

relevant xabar – universitet va uning huzuridagi tashkilotlardagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan axborot;

xodim – universitet va uning huzuridagi tashkilotlar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish (keyingi o‘rinlarda –monitoring va nazorat) universitetning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – ichki nazorat bo‘limi) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

universitet faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

korrupsiyaga oid va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligi va korrupsiyaga qarshi tadbiq etilgan tartib-taomillarning samaradorligini oshirish va baholash;

kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali universitet tizimining korrupsiyaga qarshi komplaens tizimini takomillashtirish;

korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishini tahlil qilish;

korrupsiya xavf-xatarlari indikatorlarini aniqlash;

manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tahlil qilish;

korrupsiya xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini aniqlash;

avvalgi o‘tkazilgan monitoring natijalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat choralari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturida tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish;

II. Monitoring va nazorat o‘tkazish yo‘nalishlari va tadbirlari

5. Monitoring quyidagi asosiy yo‘nalishlarda o‘tkaziladi:

korrupsiyaga qarshi tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

ommaviy axborot vositalarida xodimlar yoki ularning kontragentlarga tegishli korrupsiyaviy hatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborotning mavjudligi monitoringi;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi.

6. Nazorat quyidagi yo‘nalishlarla amalga oshiriladi:

korrupsiyaga qarshi dasturlar, nazorat-rejalari, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

universitet va uning huzuridagi tashkilotlardagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

7. Monitoring va nazorat tadbirlari ichki nazorat bo‘limi tomonidan zarur hollarda, vakolatli mutaxassislarni jalb qilingan holda amalga oshiriladi.

III. Monitoring o‘tkazish tartibi

8. Universitet va uning huzuridagi tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi ichki nazorat bo‘limi tomonidan doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashga oid qonunchiligi va boshqa korrupsiyaga oid talablarni (masalan, O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi qarorlari,

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ko‘rsatmalari, xalqaro va chet el tashkilotlari tavsiyalari) kuzatib borish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Zaruratga ko‘ra, ichki nazorat bo‘limi tomonidan monitoring yakunlari bo‘yicha universitetdagi korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish, ichki idoraviy hujjatlarni o‘zgartirish yoki yangi hujjatlar, chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun universitet rektoriga kiritadi.

9. Ommaviy axborot vositalarida universitet va uning huzuridagi tashkilotlar xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi, universitet axborot xizmati tomonidan doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Monitoring natijasida xodimga aloqador relevant xabar aniqlanganda universitet va uning huzuridagi tashkilotlardagi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda harakat qilinadi.

10. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik, ichki tartib-qoidalardan xabardorligini monitoring qilishda mazkur uslubiyotning 1-ilovada ko‘rsatilgan tartibda o‘tkaziladi. Bunda, tanlov asosida monitoringda ishtirok etuvchi xodimlar belgilab olinadi, savollar ro‘yxati (shu jumladan, keyslar, test va boshqalar) tuziladi hamda natijasiga ko‘ra, xodimlarning qonunchilik va ichki tartib-qoidalarni tushunib yetishi, ularga rioya etishdagi muammolari birgalikda muhokama qilinadi.

11. O‘tkazilgan monitoring va uning natijalari to‘g‘risidagi axborot 2-ilovaga muvofiq shaklda jurnalga kiritiladi.

IV. Nazoratni amalga oshirish tartibi

12. Universitet va uning huzuridagi tashkilotlarida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi dasturlar, nazorat-rejalari, yo‘l xaritalari ijrosi hamda korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillariga xodimlar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat olib boriladi.

13. Nazorat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavflar inobatga olingan holda, nazorat tadbirlari universitetning nazorat funktsiyalari, ichki tartib-taomillari, davlat xaridlari jarayonlari, xodimlar tomonidan qonunchilikda belgilangan taqiqlar va cheklovlarga rioya etilishi, odob-axloq qoidalariga amal qilinishi, kadrlar bilan ishlash hamda korrupsiyaviy xavflar mavjud bo‘lgan boshqa yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

14. Nazorat tadbirlarini amalga oshirish uchun ichki nazorat bo‘limi tomonidan korrupsiyaviy xavflarni baholash natijalari asosida tekshiriladigan yo‘nalishlar va jarayonlarni qamrab oluvchi reja shakllantiriladi. Korrupsiyaviy xavflar darajasi o‘zgarganda, yangi korrupsiyaviy xavflar aniqlanganda yoki rejaning ayrim bandlari o‘z dolzarbligini yo‘qotganda, universitet rahbariyati hamda tegishli tarkibiy bo‘linmalar bilan kelishilgan holda rejaga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

15. Universitetda rejadan tashqari korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat choralari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

agar universitet rektorining tegishli buyrug‘i mavjud bo‘lsa;

universitet va uning huzuridagi tashkilotlarda o‘tkazilgan boshqa tekshiruvlar (shu jumladan rasmiy tekshiruvlar, ichki auditorlik tekshiruvlari va boshqalar) davomida korrupsiya xavf-xatarlar aniqlanganda;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik alomatlari yoki manfaatlar tuqnashuvi haqida axborot kelib tushgan taqdirda.

16. Nazorat tadbirlari tekshiruv shaklida o‘tkaziladi hamda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar indikatorlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Nazorat tadbirlari doirasida, jumladan, quyidagi tartib-taomillar amalga oshirilishi mumkin:

tuzilgan shartnomalardagi ma’lumotlarni tovarlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, xizmatlar ko‘rsatilganligi yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan solishtirish;

etkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarning haqiqatda amalga oshirilganligini, ularning miqdori, sifati va shartnoma shartlariga muvofiqligini tekshirish;

kontragentlar hamda ishga qabul qilish uchun nomzodlarga nisbatan o‘tkazilgan tekshiruv natijalari bo‘yicha rasmiylashtirilgan xulosalarning to‘liqligi va asosliligini, shuningdek ularga ilova qilingan hujjatlar hamda axborot manbalari yetarliligini baholash;

kontragentlar va ishga qabul qilish uchun nomzodlarga oid ma’lumotlarni shartnomalar, anketa, shaxsiy hujjatlar va boshqa rasmiy manbalardagi ma’lumotlar bilan taqqoslash;

universitet, uning huzuridagi tashkilotlar va kontragentlar nomidan shartnomalar hamda boshqa rasmiy hujjatlarni imzolagan shaxslarning vakolatlarini tekshirish;

kontragentlarning bank rekvizitlari, soliq to‘lovchi identifikatsiya raqami (STIR), shartnoma summalari va boshqa rekvizitlarini buxgalteriya hisobi hamda boshqa axborot tizimlaridagi ma’lumotlar bilan solishtirish;

taqdim etilgan hujjatlarda asossiz tuzatishlar, o‘chirishlar, qalbakilashtirish alomatlari yoki boshqa shubhali holatlar mavjud emasligini tekshirish;

qonunchilik hujjatlari va universitetning ichki hujjatlariga muvofiq e’lon qilinishi shart bo‘lgan ma’lumotlarning (davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlar, tanlov natijalari, shartnomalar va boshqalar) belgilangan axborot manbalarida o‘z vaqtida joylashtirilganligini tekshirish;

tekshiruv jarayonida yuzaga kelgan masalalar bo‘yicha universitet xodimlari, kontragentlar va boshqa manfaatdor shaxslardan qo‘shimcha ma’lumotlar, tushuntirishlar va hujjatlarni talab qilish hamda zaruratga ko‘ra ular bilan suhbatlar o‘tkazish;

korrupsiyaviy xavflarni baholash natijalari va tekshiruv xususiyatidan kelib chiqib, qonunchilik va universitetning ichki hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa nazorat tartib-taomillarini amalga oshirish.

17. Nazorat tadbirlari yakunida ma’lumotnoma tuziladi. Ma’lumotnoma kirish, tavsiflovchi va yakuniy qismlarni o‘z ichiga olishi lozim. Bunda:

kirish qismida – nazoratning boshlanish va tugallanish sanalari, nazorat o‘tkazilgan vazifa va tartib-taomillar ro‘yxati, mas’ul bo‘lgan shaxslar ro‘yxati;

tavsiflovchi qismida – tanlov usuli va hajmi, aniqlangan qoidabuzilishlari va kamchiliklari, shu jumladan, ularning sabablari;

yakuniy qismida – korrupsiviy xavf xatarning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa, qonunchilik va ichki xujjatlariga havolalar, aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar qayd etilishi, shuningdek ma’lumotnomaga tasdiqlovchi hujjatlar, havolalar va ko‘chirmalar nusxalari (zaruratga ko‘ra) ilova qilinishi kerak.

18. Ma’lumotnoma universitet rektoriga taqdim etiladi hamda o‘tkazilgan nazorat to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga muvofiq shaklda jurnalga kiritiladi.

V. Yakuniy qoidalar

19. Monitoring va nazorat yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

20. Monitoring va nazorat yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni bajarish, amalga oshirilgan ishlar haqida ichki nazorat bo‘limiga tegishli ma’lumotlar taqdim etilishi uchun universitetning tarkibiy bo‘linmalari va universitet huzuridagi tashkilotlar rahbarlari shaxsan javobgardir.

Universitet va uning huzuridagi tashkilotlarda
korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini
monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga 1-ilova

Universitet va uning huzuridagi tashkilotlar xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish
TIZIMI

T/r	Tekshiruv yo‘nalishi	Tekshiruv tadbirlari
1.	Universitet va uning huzuridagi tashkilotlar xodimlariga odob-ahloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilish masalalari bo‘yicha treninglar (onlayn, oflayn) o‘tkazilishining monitoringi	Treninglar muntazamligi, ularni mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo‘yicha ichki talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish	Universitet va uning huzuridagi tashkilotlar xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o‘tkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan o‘tishlari natijalarining tahlili; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo‘ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarning bilishini tanlov asosida tekshirish: a) tekshiruvda qatnashish uchun universitet xodimlarini tanlov asosida aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – universitetda turli tarkibiy bo‘linmalardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni – 6 nafar); b) ichki hujjatlarda ko‘rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar va normalar bo‘yicha (muayyan vaziyatda vazifa – keyslarni hal qilish bilan) savollar ro‘yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 8-10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin); v) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish; g) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda qiyinchiliklarni muhokama qilish.

Universitet va uning huzuridagi tashkilotlarda
korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini
monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga 2-ilova

Universitet va uning huzuridagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish
JURNALI

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/ doimiy)	Monitoring / nazoratni o‘tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to‘g‘rilash choralari	Mas’ul ijrochi	To‘g‘rilanadigan chora-tadbirlarning ijro muddati	Ijro holati
Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash								
1.	Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi	Doimiy ravishda						
Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash								
2.	OAV monitoringi	Doimiy ravishda						
3.	Universitet va uning huzuridagi tashkilotlar xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi	Har yarim yilda						

4.	Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat	Har chorakda						
5.	Universitet va uning huzuridagi tashkilotlardagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat	Har chorakda						